

Nazorati davlat statistika organlariga yuklatilgan qonun hujjatlari va ularga rioya etilmagan taqdirda tadbirkorlik sub`ektlarining rahbari yoki mansabdor shaxsiga nisbatan qo`llanilishi mumkin bo`lgan jazo choralari

t/r	Nazorati davlat statistika organlariga yuklatilgan qonun hujjatlari
1.	<p>O`zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrdaqi “Davlat statistikasi to`g`risida”gi 441-II – sonli Qonuni:</p> <p style="text-align: center;">[Ko`chirma]</p> <p>13-modda. Statistika ma`lumotlarini taqdim etish</p> <p>Statistika ma`lumotlari to`liq, xolis, ishonchli bo`lishi hamda davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari, fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari, banklar, boshqa yuridik shaxslar (zarur hollarda ularning vakolatxonalari va filiallari), jismoniy shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan davlat statistikasi vakolatli organi tasdiqlagan muddatlarda va davlat statistika kuzatuvlari shakllari bo`yicha bepul taqdim etilishi kerak.</p> <p>Davlat statistika kuzatuvlarining shakllari bo`yicha statistika ma`lumotlari qonun hujjatlariga muvofiq qog`ozda yoki elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.</p> <p>Buxgalteriya hisobi, moliyaviy va boshqa hisobotlarni tartibga soluvchi, qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar statistika hujjatlarini to`ldirish (statistika ko`rsatkichlari hisobi) uchun asos bo`lib xizmat qiladi.</p> <p>16-modda. Davlat statistikasi to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik</p> <p>Davlat statistika hisobotlarini buzib ko`rsatganlik, statistika ma`lumotlarini yashirganlik va davlat statistikasi to`g`risidagi qonun hujjatlarini boshqacha tarzda buzganlikda aybdor shaxslar qonunga muvofiq jinoiy, ma`muriy va boshqa yo`sinda javobgar bo`ladilar.</p>
2.	<p>O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to`g`risida”gi PQ-100 – sonli Qarori:</p> <p style="text-align: center;">[Ko`chirma]</p> <p>6. O`zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo`mitasi, Davlat statistika qo`mitasi tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan moliyaviy va statistik hisobotlarni taqdim etishning belgilangan tartibi hamda muddatlariga qat`iy rioya etilishini ta`minlasin, bunda mikrofirma va kichik korxonalar:</p> <p>buxgalterlik balansidan iborat moliyaviy hisobot - 1-shaklni va moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot - 2-shaklni - har yili;</p> <p>statistik hisobotni - hisobot turlariga qarab har chorakda yoki har yili taqdim etadilar.</p>

3.	<p>O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 7 apreldagi “O`zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi PF-4609-son Farmoni</p> <p style="text-align: center;">[Ko`chirma]</p> <p>4. Belgilab qo`yilsinki: 2014 yilning 1 iyunidan davlat va xo`jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rasmiy veb-saytlarida chop etilmagan ularning tadbirkorlik sub`ektlari bilan o`zaro munosabatlar masalalarini tartibga soladigan me`yoriy-huquqiy va boshqa hujjatlari talablarini buzish holatlari uchun tadbirkorlik sub`ektlariga javobgarlik choralari qo`llash taqiqlanadi.</p> <p>8. Shunday tartib o`rnatilsinki, unga muvofiq: 2015 yilning 1 yanvaridan boshlab, kichik tadbirkorlik sub`ektlari statistika hisobotlarini yilda bir marotaba taqdim etadilar, bunda statistika organlari har chorakda faoliyatning tegishli yo`nalishlari va sohalari bo`yicha tanlanma asosdagi o`rganishlarni o`tkazib boradilar.</p>
4.	<p>O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 11 fevralda 3286-raqami bilan ro`yxatga olingan O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining 2021 yil 09 fevraldagi “2021 yil uchun davlat statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to`g`risida”gi 6-mb – sonli qarori</p> <p style="text-align: center;">[Ko`chirma]</p> <p>O`zbekiston Respublikasi “Davlat statistikasi to`g`risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 sentyabrdagi 690-son qarori bilan tasdiqlangan O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi to`g`risidagi nizomga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi QAROR QILADI:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. 2021 yil uchun davlat statistika hisoboti shakllari 1-109-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.* 2. Mazkur qaror rasmiy e`lon qilingan kundan e`tiboran kuchga kiradi. <p>*Ma`lumot uchun: Ilovalar mazkur www.stat.uz veb-saytining “Hisobotlar shakllari” ruknida joylashtirilgan.</p>
5.	<p>O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 11 fevralda 3193-2 raqami bilan ro`yxatga olingan O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining 2021 yil 09 fevraldagi “2020 yil uchun davlat statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to`g`risidagi qaror, shuningdek unga o`zgartirishlarni o`z kuchini yo`qotgan deb topish to`g`risida”gi 5-mb – sonli qarori</p> <p style="text-align: center;">[Ko`chirma]</p> <p>O`zbekiston Respublikasi “Davlat statistikasi to`g`risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 2 sentyabrdagi 690-son qarori bilan tasdiqlangan O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi to`g`risidagi nizomga muvofiq, O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi QAROR QILADI:</p>

	<p>1. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2019-yil 2-oktabrdagi 10-mb-son "2020-yil uchun davlat statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori (ro'yxat raqami 3193, 2019-yil 4-noyabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.11.2019-y., 10/19/3193/3993-son); O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020-yil 24-apreldagi 3-mb-son "2020-yil uchun davlat statistika hisoboti shakllarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qarori (ro'yxat raqami 3193-1, 2020-yil 15-may) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.05.2020-y., 10/20/3193-1/0627-son).</p> <p>2. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.</p>
<p align="center">Qonunchilik hujjatlariga rioya etilmagan taqdirda tadbirkorlik sub'ektlarining rahbari yoki mansabdor shaxslariga qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo choralari</p>	
<p align="center">I. Ma'muriy javobgarlik choralari:</p>	
<p>1.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi [Ko'chirma] 215-modda. Davlat statistik hisobotlarini taqdim etish tartibini buzish* Mansabdor shaxslarning davlat statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo'lgan hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan davlat statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi, - <u>eng kam ish haqining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</u> Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, - <u>eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.</u></p>

*Ma'lumot uchun:

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi

[Ko'chirma]

267-modda. Davlat statistika organlari

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi organlariga ushbu Kodeksning 215-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining raisi va uning o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar statistika boshqarmalari boshliqlari va ularning o'rinbosarlari, tumanlar, shaharlar statistika bo'limlarining boshliqlari ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar nomidan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqlidir.